


2022 yil yanvar – iyun
oylarida
Sirdaryo viloyatida
xizmatlar sohasining
rivojlanishi

2022- yil yanvar - iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi - milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilmahilligini, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqt ni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.



2022- yil yanvar - iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli hildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar – iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2356,0** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **379,5** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **112,3 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar - iyun oylarida)

**2356,0 mlrd.
so'm**

112,3 %

**112,3 mlrd.
so'mga**

• Xizmatlar hajmi

• O'sish sur'ati

• Hajmning o'sishi

2022- yil yanvar- iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar - iyun oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	2356,0	112,3
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	132,2	122,9
Moliyaviy xizmatlar	747,3	115,0
Transport xizmatlari	308,7	106,2
shu jumladan: avtovtransport xizmatlari	289,6	105,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	54,8	103,7
Savdo xizmatlari	568,3	103,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	62,9	109,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	101,4	108,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	50,9	112,0
Ijara xizmatlari	62,4	143,5
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	55,9	107,9
Shaxsiy xizmatlar	45,0	108,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	22,7	117,7
Boshqa xizmatlar	143,4	143,4

2022- yil yanvar - iyun


Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan past ko'rsatkich



Nisbatan yuqori ko'rsatkich



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni moliyaviy xizmatlar egallaydi. 2022- yilning yanvar - iyun oylarida ularning ulushi 31,7 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, yuqori sur'atlar savdo (24,1 %), transport xizmatlari (13,1 %), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (5,6 %) qayd etildi.

2022- yil yanvar - iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **1,0 %** ga yetdi

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar - iyun oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **32,7 %** ini tashkil etgan. 2021- yilning shu davrida me'morchilik sohasidagi xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **0,9 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatda texnik jihozlanish darajasining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoque.


2022- yilning yanvar - iyun oylarida yuqori o'sish savdo xizmatlarida (103,5 %), transport xizmatlarida (106,2 %) qayd etildi.

Buning sababi, korxona va tashkilotlar faoliyatini tiklash bilan bir qatorda koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olish uchun qo'yilgan cheklovlarni yumshatilishi bilan bog'liq.

2022- yil yanvar - iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taqqoslanishi, % da




Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar – iyun oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – 135,4 %.

Boshqa xizmatlar esa ushbu davrda ko'tarilish kuzatilgan – 133,9 %.

2022- yil yanvar - iyun

Dastlabki ma'lumotlar

**Transport xizmatlarining o'sish sur'ati, % da
(2022- yil yanvar - iyun)**



2022- yilning yanvar - iyun oylarida transport xizmatlarining yuqori o'sishiga Boyovut (108,0 %), Sayxunobod (107,5 %) shuningdek, Mirzaobod tumanlari (108,9 %) ga erishildi.

Ushbu sohadagi xizmatlar hajmining biroz o'sish sur'ati Sardoba (104,9 %) tumanida qayd etildi.

Transport xizmatlarining ko'rsatilgan eng yuqori ulush ko'rsatkichlari Guliston (24,2 %) va Yangiyer (15,9 %) shaharlarda, Sirdaryo (20,3 %) tumanga to'g'ri keldi.

Eng past ulush ko'rsatkichi Shirin shahrda qayd etildi (1,6 %).

2022- yil yanvar - iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2022- yilning yanvar - iyun oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi **24,1 %** ni tashkil etib, bu esa **568,3 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar - iyun oylarida ularning hajmi 490,6 mlrd. so'mga yoki umumiylajmi hajmning **24,8 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

490,6

Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

568,3

112,1

O'sish sur'ati, % da

103,5

2021- y. yanvar- iyun




2022 y. yanvar - iyun

2022- yil yanvar - iyun

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtidan uch qismini, aniqrog'i **70,7 %** ni tashkil etdi.

**Savdo xizmatlari tarkibi
(2022- yil yanvar - iyun oylarida)**




Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar - iyun oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi **71,6 %** ni tashkil etgan.

2022- yil yanvar - iyun

Dastlabki ma'lumotlar

**Hududlar kesimida savdo xizmatlarining tarkibi, % da
(2022- yilning yanvar - iyun oylarida)**



■ Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosidan tashqari, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda

■ Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)

■ Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

2022- yil yanvar - iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, chakana savdo xizmatlarining eng katta ulushi Oqoltin (79,2 %) Boyovut (73,5 %) va Sardoba tumanlarida (66,7 %), tumanlarida kuzatilmogda, Yangiyer shahrida (73,1 %).



Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar - iyun oylarida chakana savdo ulushi Mirzaobod tumanlarida maksimal darajaga yetgan – 82,7 %.



Sayxunobod tumanida bu ko'rsatkich nisbatan past. Bu yerda chakana savdo ulushi **39,6 %** ni tashkil etdi. Biroq, bu tumanda ulgurji savdoda xizmatlar ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) ancha katta – **56,1 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar – iyun oylarida Sayxunobod tumanida Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdo ulushi 4,3 % ni tashkil etdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosidagi xizmatlarning nisbatan yuqori ulushi Oqoltin (11,1 %), Xovos (9,8 %), Guliston (9,7 %), Sardoba (7,5 %) tumanlarida qayd etildi.



Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar – iyun oylarida ushbu xizmat turining salmoqli ulushi Oqoltin tumaniga to'g'ri kelgan – **11,1 %**.

2022- yil yanvar - iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2022- yil yanvar - iyun oylarida)

2022- yil yanvar - iyun oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **747,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar - iyun oylarida ularning hajmi **646,3** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2022- yilning o'tgan davrida ularning umumiyligi xizmatlar hajmidagi ulushi **31,7 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar – iyun oylarida ularning ulushi **32,7 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **101,0** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2022- yilning yanvar - iyun oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **115,0 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar – iyun oylarida ularning o'sish sur'ati **135,4 %** ni tashkil etgan.

2022- yil yanvar - iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **92,3 %** ni tashkil etdi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiyligi hajmning **5,3 %** ini tashkil etdi.

2022- yilning yanvar - may oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **2,4 %** oralig'ida qayd etildi.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi
(2022- yil yanvar – iyun oylarida)**



**Sug'urta va nafaqa ta'minoti
bo'yicha xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar**

**Yordamchi moliyaviy
faoliyat**

Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar - iyun oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmining **93,6 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **4,4 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **2,0 %**.

2022- yil yanvar - iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2022- yilning yanvar - iyun oylarida)

O'sish sur'ati

2022 - yilning yanvar - iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **132,2** mlrd. so'm darajasida belgilandi.

2021- yilga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati **122,9 %** ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun:

2021- yilning yanvar - iyun oylarida ushbu xizmat turi hajmi **106,4** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor

xizmatlari umumiyligi hajmining **5,4 %** ga teng bo'lgan.
O'sish sur'ati esa **123,9 %** ni tashkil etgan.

Hajmning o'sishi

25,8 mlrd.
so'mga

122,9 %

132,2
mlrd. so'm

5,6 %

Jami hajmdagi ulushi

Xizmatlar hajmi


2022- yil yanvar – iyun

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2022- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lif va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamонавиј ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lif sohasidagi xizmatlar




2022- yilning yanvar – iyun oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **101,4 mlrd. so'mga** yetdi yoki bozor xizmatlari umumiyligi tashkil etdigan sur'atlari **4,3 %** ni tashkil etdi. 2021- yilning yanvar – iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **108,5 %** ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar - iyun

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yilning yanvar - iyun oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlarning eng yuqori hajmi Sirdaryo (**4,3** mlrd. so'm), Mirzaobod (**1,1** mlrd. so'm), tumanlarida shuningdek, Guliston (**82,5** mlrd. so'm) va Yangiyer (**9,5** mlrd. so'm) shaharlarida qayd etildi.

Hududlar kesimida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi, mlrd. so'm (2022- yil yanvar – iyun oylarida)



Taqqoslash uchun:

2021- yilning yanvar – iyun oylarida Guliston shahri bo'yicha ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi 81,9 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2022- yil yanvar – iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

42,6 mlrd.
so'm

54,8 mlrd.
so'm

Xizmatlar hajmi

2021- y.
yanvar - iyun

2022- y.
Yanvar - iyun

112,7 %

103,7 %


O'sish sur'ati

2021- yilning yanvar - iyun oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 12,2 mlrd. so'mga ortgan.

2022- yil yanvar - iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi



2022- y. yanvar - iyun

2021- y. yanvar- iyun



Yashash bo'yicha
xizmatlar



Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash
bo'yicha xizmatlar

2022- yil yanvar - iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyligi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **90,3 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar - iyun oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **89,5 %** ni tashkil etgan.

2022- yil yanvar - iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli hil tibbiy yordam hamda tibbiyat xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.


Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2022- y.
yanvar - iyun

50,9
mlrd. so'm

2,2 %

112,0 %



2021- y.
Yanvar – iyun

Xizmatlar
hajmi


Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi

O'sish
sur'ati

42,1
mlrd. so'm

2,1 %

129,7 %



2022- yil yanvar – iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar - iyun oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2022- y.	2021- y.
Sirdaryo viloyati	2356,0	112,3	124,9
<i>shaharlari:</i>			
Guliston	1175,6	112,3	129,6
Shirin	31,2	111,3	117,8
Yangiyer	174,4	110,5	117,7
<i>tumanlari:</i>			
Boyovut	158,7	132,2	125,6
Guliston	91,7	111,0	120,8
Mirzaobod	102,0	103,4	115,3
Oqoltin	65,0	110,0	127,2
Sardoba	79,7	110,8	114,9
Sayxunobod	88,2	107,4	114,7
Sirdaryo	286,9	110,6	123,8
Xovos	102,6	111,6	129,8

2022- yil yanvar - iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, Respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2022- yil yanvar – iyun oylarida)



2022- yil yanvar - iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulushni Guliston shahri tashkil etdi – **49,9 %** (2021- yilning yanvar - iyun oylarida – **46,1 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Shirin shahrida – **1,3 %** (2021- yilning yanvar - iyun oylarida – **2,9 %**) qayd etildi.

2022- yil yanvar - iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi



Hajmning o'sishi



O'sish sur'ati

2022- yilning yanvar - iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2668,7 ming so'mga yetdi.

2021- yilning yanvar – iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **110,0 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2021- yilning yanvar - iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2286,0 ming so'mni tashkil etgan.

2020- yilning yanvar - iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 122,7 % da qayd etilgan.

2022- yil yanvar - iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni



2021- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

Ularning umumiyligi

20221- yil yanvar - iyun

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (**50,1 %**).

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **8,9 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **5,3 %** ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **1,9 %** ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **2,0 %** ni tashkil etdi.

Savdo – 50,1

**Boshqa turdag'i
xizmatlar – 31,8**

**Yashash va ovqatlanish
– 8,9**

Tashish va saqlash – 5,3

Axborot va aloqa – 1,9

Sog'liqni saqlash – 2,0


2022- yil yanvar - iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2022- yil yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi 51,1 % ni tashkil etdi.

2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi 79,4 % ga to'g'ri keldi.

